O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI TOYLOQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

Toyloq sh., A.Temur ko‘chasi, 22-uy.

2022 - yil 29 - sentabr 299-7-104-Q/22 Toyloq tuman hokimligi

Toyloq tumanidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 7, 20 moddalari, 2013-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-son Qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Toyloq tumanidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2.Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Tog‘ayev), tuman IIB YHXB (A.Nabiyev), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (T.Xojiqulov)larga:

-tuman umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilishini tashkil qilish;

-yo‘l belgilari o‘rnatilishi natijasida avtomobil yo‘li bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova) ushbu qarorni “Qo‘shchinor” gazetasida nashr etilishi, hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Najmiddinov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B. Babonazarov**